

## O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

**Mustafaqulova Marjona**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti  
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *O‘zbek leksikografiyasi o‘zining boy tarixiga ega. Uning ildizlari bir necha o‘n asrlar ilgari davrlarga to‘g‘ri keladi. O‘tgan davrlar mobaynida lug‘atchilik an‘analari va lug‘at turlarining ham sezilarli tamaddunini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolamiz orqali leksikografiya, xususan, o‘zbek leksikografiyasining taraqqiyoti va bugungi kundagi ahamiyati haqida ayrim fikrlarimizni bayon qilamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *leksikografiya, lug‘at tarkibi, lug‘at tiplari, tarixiy lug‘atlar, zamonaviy lug‘atlar, lug‘atchilik tarixi.*

### **Kirish**

Har bir tilning lug‘at tarkibi keng ma’noda shu tilda ishlatiladigan barcha so‘zlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Lug‘at tarkibi tilning ahvoli qandayligini, uning xilma-xil so‘zlarga boyligini ko‘rsatadi. Lug‘at va uning tuzulishi, yaratilish tamoyillari haqidagi fan - leksikografiya, lug‘atchilik kabi atamalar bilan yuritiladi.

Ayrim manbalarda “leksikografiya” va “lug‘atchilik” terminlari ikki vazifada qo‘llanilganing guvohi bo‘lamiz. Leksikografiya lug‘at tuzish nazariyasini, lug‘atchilik esa lug‘at tuzish amaliyotini ifodalaydi<sup>145</sup>.

### **Muhokama va natijalar**

Lug‘atlar zamon nuqtai nazaridan ikkiga - tarixiy va zamonaviy lug‘atlarga bo‘linadi. Tarixiy lug‘atlar haqida o‘rganuvchi fan “Tarixiy leksikografiya” bo‘lib, u o‘zbek tilshunosligi tarixida lug‘atchilik an‘anasining shakllanishi va uning tarixiy taraqqiyoti, ularning tuzilish prinsiplari, lug‘atlarda so‘zlarning izohlanish yo‘llarti, til tarixida so‘z va uning ma‘nosiga munosabat, so‘z ma‘nolarining talqini, tarixiy grammatik asarlarda leksikografiyaga tegishli bilimlarning berilishi singari lingvistik masalalarni qamraydi<sup>146</sup>.

Ahamiyatli yeri shundaki, o‘tmishda yaratilgan lug‘atlar hozirgilardan ancha farq qiladi. Ular yolg‘iz so‘zlarning o‘zidan iborat emas, ularda grammatik qoidalar aralash beriladi. Masalan, lug‘atda joy olgan muayyan guruh so‘zlardan keyin ularning grammatik qoidalari,

<sup>145</sup> Normamatov S., Leksikografiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2020. - B. 9.

<sup>146</sup> Содиқов Қ., Тарихий лексикография. – Тошкент: ТошДНИИ, 2013. - Б. 5.

ko‘p o‘rinda esa so‘zning talaffuzini berish maqsadida unga tegishli fonetik va morfologik qoidalar keltiriladi. Yana bir jihati, o‘tmishda yaratilgan grammatik asarlarning ko‘pida birinchi bo‘limi lug‘at bo‘lsa, keyingi bo‘limlar grammatik qoidalarga bag‘ishlangan.

Eng eski davr tilshunosligi davridan (bu VI - X yuzyilliklarni qamraydi) tilshunoslikka bag‘ishlangan maxsus asarlar, lug‘atlar to‘lig‘icha yetib kelgan emas, deb qaraladi. Shunga qaramay, islomdan avvalgi davrlarda qadimgi turkiy yozuvlarda bitilgan grammatik asarlar hamda lug‘atlarning uzindilari saqlanib qolgan. Ushbu uzindilar o‘sha zamonlarda tilshunoslik fani, xususan, lug‘at tuzish an‘anasini yuzaga kelganidan darak beradi.

O‘tmishda lug‘atshunoslik tilshunoslikning muhim bir qismi sifatida qaralgan. XVI asrlarda yaratilgan “Attuhfa” asari muallifi Abu Hayyon asarning kirish qismida yozadi: “Har bir tilni bilish uch narsani o‘zlashtirish bilan hosil qilinadi. Birinchisi: har bir so‘z ma‘nosini bilish. Bu qism lug‘atshunoslik deb ataladi. Ikkinchisi: so‘zlarning ayrim-ayrim holdagi xususiyatlarini o‘rganish. Bu qism ilmi sarf deb yuritiladi. Uchinchisi: so‘zning bir-biriga bog‘lanishiga doir xususiyatlarini o‘rganish. Bu qism ilmi navh deyiladi”<sup>147</sup>.

O‘zbek lug‘atchiligi tarixi, shuningdek, boshqa turkiyzabon xalqlar leksikografiyasi ham mashhur alloma Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Agar o‘zbek lug‘atchiligi ibtidosini “Devonu lug‘otit turk” asaridan deb hisoblasak, uning 950 yilga yaqin tarixga ega ekanligi ma‘lum bo‘ladi<sup>148</sup>.

Mahmud Qoshg‘ariy leksikografiya sohasida dunyo tilshunosligida yuksak cho‘qqiga ko‘tariladi. U XI asrdayoq turkiy so‘zlarning izohli lug‘atini tuzdi. Mahmud Qoshg‘ariyga qadar arab tilshunosligida leksikografiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan edi. Xususan, Xalil al-Farohidiy ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn”, Sibavhiyning “Al-kitob” singari asarlari arab olamida shuhrat qozondi. Mahmud Qoshg‘ariy ularning lug‘at tuzish prinsiplariga tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Bu haqda muallifning o‘zi shunday yozadi. “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajo, nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim, qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘i joylarni yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni o‘z joyida qo‘llaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim. Asarni sakkiz asosiy bo‘limda chekladim. Har bir bo‘limni otlar(ismlar) va fe‘llar tarzida ikki qismga ajratib berdim. Otlarni oldin, fe‘llarni esa keyin o‘z sirasiga qarab, boblarga ajratib, o‘z o‘rnida oldinma-

<sup>147</sup> Содиқов Қ., Тарихий лексикография. – Тошкент: ТошДШИ, 2013, - Б. 5-6.

<sup>148</sup> Мадвалиев А., Мусаева Ф., Ўзбекча-русча луғатчилик тарихи ва ҳозирги муаммолари//О‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2015. №2. – B. 23.

ketin ko‘rsatdim. Tushunilishi oson bo‘lishi uchun asarda arabcha istilohlar(termin) qo‘lladim”<sup>149</sup>.

XV-XVI asrlarda “Chig‘atoy turkiysi” bo‘yicha yaratilgan lug‘atlar va grammatik asarlarda Sharq, xususan, turkiy lug‘atchilik an‘anasida qiziq bir hodisa kuzatiladi. Badiiy asarni ko‘chirayotgan kotib unda qo‘llangan, biroq o‘z davri o‘quvchisi uchun tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar ma‘nosini hoshiyaga yoki satr ostiga yozib ketgan. Kezi kelganda, bu narsa lug‘at vazifasini ham o‘tagan. Buni mashhur bir qo‘lyozma misolida ko‘rib chiqamiz.

“Qutadg‘u bilig” ning uyg‘ur yozuvli hirot nusxasini ko‘chirayotgan baxshi matnni yozayotganda, o‘rni bilan, ayrim so‘zlar yoki harflar ostida ularning o‘qilishi, o‘sha davr uchun tushunarsiz bo‘lgan so‘zlarning ma‘nosini yozib ketgan. Buni ham lug‘atchilik tarixida o‘ziga yarasha usul sifatida baholash mumkin. Chunki o‘tmishda tarixiy asarlar ko‘chirilayotganda ko‘pincha shunday yo‘l tutilgan (masalan, shunga o‘xshash hodisani “Hibbat ul-haqoyiq” ning XV-XVI asrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozmasida yoki XVIII asrda ko‘chirilgan Alisher Navoiyning “Xamsa” sida ko‘rishimiz mumkin)<sup>150</sup>.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy buyuk shoir va yozuvchi, adabiyotshunosgina emas, balki ulug‘ tilshunos ham edi. Uning tilshunoslikka tegishli ikki asari bor: “Muhokamat ul-lug‘atayin” hamda “Sab‘at abhur” lug‘ati.

“Muhokamat ul-lug‘atayin” ikki til – turkiy va forsiyning o‘zaro qiyosiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, unda ikki toifa tilning bir-birida qaytarilmaydigan qirralari o‘zaro chog‘ishtirib, xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritib berilgan.

“Sab‘at abhur” (“Yeti dengiz”) Alisher Navoiyning arabshunoslik, xususan, arab leksikografiyasi sohasida yaratgan yirik ishidir. Lug‘atda klassik arab tilidagi so‘zlar arab tilida izohlanadi<sup>151</sup>.

Navoiy asarlarining tilini tushunish uchun ishlab chiqilgan “Abushqa” lug‘ati turkiy leksikografiya tarixidagi ilk chig‘atoycha-turkcha izohli lug‘atdir. “O‘zbekiston madaniy merosi Vengriya fanlar akademiyasi to‘plamida” maqolalar to‘plamida “Abushqa” lug‘ati Niyoziyga nisbat berilgan<sup>152</sup>.

Keyingi davrlarda eski o‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan lug‘atlar ichida “Kelurnoma” lug‘ati ham ahamiyatli. Bu lug‘at Hindistonda, boburiylardan Abu Muzaffar Muhiddin Avrangzeb hukmronligi davrida yaratilgan.

Asar muallifi Muhammad Yoqub Chingiy “Kelurnoma”ning kirish qismida o‘z asarini Avrangzebning topshirig‘iga binoan yozganini aytib o‘tadi. Lug‘at 15 bobdan va 332

<sup>149</sup> Нурмонов А., Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 43-44.

<sup>150</sup> Содиқов Қ., Тарихий лексикография. – Тошкент: ТошДШИ, 2013, - Б. 23.

<sup>151</sup> Hasanov B., Alisher Navoiyning “Sab‘at abhur” lug‘ati. – Toshkent, 1981.

<sup>152</sup> Ўзбекистон маданий мероси Венгрия фанлар академияси тўпламида. – Toshkent: Silk Road Media, 2022. – Б. 35.

fasldan iborat. Ulardan 14 bobi arab alifbosi asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq fe’lni izohlashga bag‘ishlanadi<sup>153</sup>.

Yana bir lug‘at Fazlullaxon Barlosning o‘zbekcha-forscha lug‘atlar sirasiga kiruvchi “Lug‘ati turkiy” asari. Tilshunos A. Ubaydullayev Fazlullaxonning “Lug‘ati turkiy” asari tahlilida lug‘atda so‘zlar izohlarining quyidagi turlarini ko‘rsatadi:

- muqobili bilan izohlash;
- kengroq izohlash;
- umumiy izohlash;
- qo‘shimcha ravishda hindcha so‘zlar bilan izohlash<sup>154</sup>.

Bu davr lug‘atchiligida grammatika masalalarini o‘z ichiga olgan lug‘atlar ham uchraydi. Ana shulardan biri Mirza Mehdiyxonning “Sangloh” lug‘ati. Mirza Mehdiyxon asarining lug‘at qismi “Sangloh” deb nomlangan. Forscha “sang” so‘zi “tosh” degan ma’noni anglatadi. Sangloh majoziy ifoda, forslar uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan turkiy so‘zlar toshloq, toshli yerga o‘xshatilgan. Lug‘at 24 bobdan iborat bo‘lib, unda so‘zlar bilan bir qatorda, ko‘plab turg‘un birikmalar, frazeologik ibora va sostavli atamalar keltirilgan<sup>155</sup>. Mirza Mehdiyxonning asari eski o‘zbek tili grammatikasi va leksikasi bo‘yicha noyob manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida XIX asrning oxiri XX asrning boshlari alohida o‘rin tutadi. Bu davrda xalqlar o‘rtasidagi ma’naviy va ma’rifiy munosabatlarning aks etishi ikki va uch tilli so‘zlashgichlarning yaratilishida namoyon bo‘ldi.

Bundan tashqari, ayni shu davrda jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati ham leksikografiya sohasi uchun muhim manbalarni yaratilishiga sabab bo‘ldi. Xususan, G‘ozi Olim Yunusov (“Qisqacha ruscha-o‘zbekcha siyosiy-huquqiy lug‘at”), S.Rahmatiy, Abdulla Qodiriy (“Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik”), Fitrat (“Eng eski turk adabiyoti namunalari”), Is’hoqxon Ibrat (“Lug‘oti sitta al sina” 6 tilli lug‘at) va boshqa ko‘plab jadidlarimiz shular jumlasidandir.

Sobiq sho‘rolar davrida ham leksikografiya sohasi tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Bu davrda lug‘at yaratishning nazariy muammolariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada O. Usmonov, Z. Ma’rufov, S. Akobirov, A. Xo‘jaxonov kabi olimlarning xizmati katta bo‘ldi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida tilshunoslikning boshqa sohalari singari leksikografiya sohasining ham istibollari ko‘zga ko‘rina boshladi. Lug‘atchilikka ham turli jihatlari orqali

<sup>153</sup> Мухаммед Якуб Чинги, Келур-наме. Стараузбекско-таджикский словарь XVII в. – Ташкент:Фан,1982. – Б. 7.

<sup>154</sup> Ubaydullaev A., «Lug‘ati turkiy»ning leksikografik tadqiqi: Filol. Fan. nomz... diss. ... avtorref. – Toshkent, 2011. – B. 16,

<sup>155</sup> Мухиддинов К., «Санглах» Мирзы Мухаммада Махдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент,1971.

yondashish natijasida turli xildagi lug‘atlar yaratila boshladi. Xususan, Berdaq Yusufning “Turk tilining ters lug‘ati”, Nizomiddin Mahmudov va Durdona Xudoyberganovalarning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”, Nizomiddin Mahmudov va Yorqinjon Odilovlarning “So‘z ma‘no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tili enantiosemitik so‘zlarining izohli lug‘ati”, Durdona Xudoyberganova va Dilrabo Andaniyozovalarning “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati” va boshqa o‘nlab lug‘atlar leksikografiya sohasining taraqqiyotini va yangicha tomonlardan tadqiq qilinayotganligini ko‘rsatib berdi.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsion vositalarining rivoji kompyuter tarjimasi, tahriri, elektron lug‘atlarning yaratilishiga zamin bo‘lib xizmat qildi. Ana shunday lug‘atlardan biri Toshkent axborot texnologiyalari universitetida M. Ravilov, Sh. Tog‘ayev, Sh. Baxshullayevlar tomonidan yaratilgan “e-lug‘at” dir. Mazkur lug‘at 3 tilda – o‘zbek, ingliz va rus tillarida ishlaydi va 145 000 dan ortiq so‘z va atamalar tarjimasi va izohini o‘z ichiga oladi<sup>156</sup>.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek lug‘atchiligi bir necha davrlarni bosib o‘tdi va har bir davrning madaniyati, davr kishilarining qarashlari lug‘atlarda ham o‘z aksini topdi. Aynan shu sababli, zamonlar o‘zgarishi bilan lug‘atlar ham rivojlanib, takomillashib bordi. Ayniqsa, mustaqillik yillariga kelib lug‘atchilik o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishdi va zamonaviy lug‘atlar ham yaratildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normamatov S., Leksikografiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2020.
2. Содиқов Қ., Тарихий лексикография. – Тошкент: ТошДШИ, 2013.
3. Нурмонов А., Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Hasanov B., Alisher Navoiyning “Sab‘at abhur” lug‘ati. – Toshkent, 1981.
5. Мухаммед Якуб Чинги, Келур-наме. Стараузбекско-таджикский словарь XVII в. – Ташкент:Фан,1982.
6. Мухиддинов К., «Санглах» Мирзы Мухаммада Махдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент,1971.
7. Убайдуллаев А., «Луғати туркий»нинг лексикографик тадқиқи: Филол. Фан. номз... дисс. ... автореф. – Тошкент, 2011.
8. Мадвалиев А., Мусаева Ф., Ўзбекча-русча луғатчилик тарихи ва ҳозирги муаммолари//O‘zbek tili va adabiyoti journali. – Toshkent, 2015. №2.

<sup>156</sup> Normamatov S., Leksikografiya asoslari. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B . 95.

9. Turobova M., Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atshunosligi taraqqiyoti.// Research and education, 2022. №1.

10. Ўзбекистон маданий мероси Венгрия фанлар академияси тўпламида. – Toshkent: Silk Road Media, 2022.